



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH VA TIBBIY
SUG‘URTA TIZIMINING JORIY HOLATI, SAMARADORLIGINI
OSHIRISH VA XALQ SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHNING
ILMIY ASOSLARI**

T.f.d. Rustamova D.A., Kasimova D.A.

Davlatova Yulduz Chori qizi

Jamoat sog‘liqni saqlash maktabi, Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish hamda tibbiy sug‘urta mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilishda sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlash, ularning samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy himoyani kuchaytirish dolzarb masalalardan biridir. Shu bois, mazkur tizimlarning joriy holatini ilmiy asosda tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo‘llarini aniqlash zarurati mavjud.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimining joriy holatini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash hamda xalq salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘ekti va predmeti. Tadqiqot ob‘ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimi doirasida shakllanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy munosabatlar belgilandi. Tadqiqot predmeti esa sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimining samaradorligini oshirish mexanizmlari, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar hamda amaldagi tizimdagi muammolarni bartaraf etish yo‘llaridan iborat.



Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tahliliy, statistik, sotsiologik so‘rov, ekspert baholash, taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning natijalari. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimining joriy holati kompleks tahlil qilindi hamda ularning xalq salomatligini muhofaza qilishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritildi. Amaldagi tizimning kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, tibbiy sug‘urtaning sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Xalqaro tajribalar (Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya va Rossiya) tahlili asosida sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimini takomillashtirishning samarali yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini optimallashtirish hamda profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surildi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish xalq salomatligini muhofaza qilish, aholining sifatli tibbiy xizmatlardan teng foydalanishini ta‘minlash hamda tizimning barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urta tizimining samaradorligini oshirish, ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda sohaga oid me‘yoriy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga oid normativ hujjatlar va statistik hisobotlar. – Toshkent, 2019–2024 yy.
2. Health Financing for Universal Health Coverage. – Washington, DC, 2021
3. Turkey’s Health Transformation Program and Universal Health Coverage.
4. The Lancet, 2011.
5. Health Financing for Universal Coverage and Health System Performance .Bulletin of the World Health Organization, 2013.